MASOFAVIY TA’LIMDA O‘QUVCHILARGA TOPSHIRILADIGAN MUSTAQIL ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN ZAMONAVIY METOD VA RAG‘BAT KARTOCHKALARIDAN FOYDALANISH

Nurbuvayev Muqimjon Rasuljon o‘g‘li
Qozog‘iston Jahon istedodli yoshlar uyushmasi raisi

Annotatsiya: ushbu tezisda masofaviy ta'limning o‘ziga xos xususiyatlari, unda qo‘llaniladigan metodlar va mustaqil topshiriqlarda "Faoliyat" metodi hamda rag‘bat kartochkalardan foydalanish haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: masofaviy ta'lim, pedagogik texnologiyalar,"ma‘ruza" metodi, "faoliyat" metodi, rag‘bat kartochkalari, innovatsion texnologiyalar.

Abstract: this thesis talks about the specific features of distance education, the methods used in it, the "Activity" method and the use of incentive cards in independent tasks.

Key words: distance education, pedagogical technologies, "lecture" method, "activity" method, incentive cards, innovative technologies.

Hozirgi davrda butun dunyoda dolzarb bo‘lgan masofaviy ta'lim juda katta ahamiyat kasb etmoqdaki,buni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- jamiyatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishi;
- o‘qituvchi faoliyatiga faqatgina o‘quv jarayonining tashkilotchisi emas, balki nufuzli bilimlar manbai sifatida qaralayotganligi;
- fan-texnika taraqqiyotining o‘ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko‘payib borayotganligi va ularni yoshlarga yetkazishda vaqtning chegaralanganligi;
- yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg‘or bilim berish usuli hisoblangan obyektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilinayotganligi;
- bugungi kundagi pandemiya sharoitida yosh avlod uchun o‘ta muhim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakadagi bo‘shliqlarni bartaraf etishga qaratilayotgan chora tadbirlar natijasi;

Hozirgi kunda ta'lim tizimida masofaviy o‘qitish ta'limning qulay turi sifatida kirib kelmoqda.Masofaviy ta'limning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

O‘qituvchi- o‘quvchi- kommunikatsiya.

Masofaviy o‘qitish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri o‘quvchi dars vaqti, hajmi va boshqalarga nisbatan erkin bo‘ladi. Bundan tashqari, masofaning uzoqligi, insonlarning sog‘ligi yoki boshqa sabablar ham ularnining bilim olishga monelik qilmaydigan sharoit yaratadi. Masofadan o‘qitishda o‘qituvchi va o‘quvchi orasida bevosita kontakt bo‘lmaganli sababli ta'lim jarayonida olingan bilim va ko‘nikmalarni tekshirish uchun mustaqil ishlar topshiriladi.Mustaqil ishlar orqali o‘quvchilar bilimi va ko‘nikmasi nazorat qilib boriladi.Masofadan o‘qitishda nazoratning o‘ziga xosligi shundaki, unda o‘quvchi shaxsini aniqlash vazifasini amalga oshirish zarurati mavjud. O‘quv materiallarini masofadan o‘qitishda o‘zlashtirish sifatini an'anaviy o‘qitishdagidek quyidagilar bilan xarakterlash mumkin:

- tasavvur darajasi;
- qaytarish darajasi;
- konikma tajriba darajasi;
- kompetensiyaviylik darajasi;

Masofaviy ta'limda dars jarayonida asosan "Ma'ruza" va "Namoyish" metodlaridan samarali foydalaniladi. Mavzu yuzasidan o‘quvchilar bilimini nazorat qilish uchun mustaqil ishlar topshiriladi. Mustaqil topshiriqni bajarishda o‘quvchilar faolligini oshirish uchun "Faoliyat" metodini qo‘llash masofaviy ta'lim samaradorligini oshirishda yetakchi xususiyatga ega. Bu metodni ona tili darslarida qo‘llash maqsadga muvofiqdir, chunki bu metod:

- o‘quvchi nutq madaniyatini shakllantiradi;

- o‘quvchining o‘z imkoniyatidan kelib chiqqan holda topshiriqqa nisbatan mas'uliyatini oshiradi;
- o‘quvchining qobiliyatini yuzaga chiqarish imkoniyatini yaratadi;
- kasbga yo‘naltiradi;
- tengdoshlari o‘rtasida o‘zaro hurmatni mustahkamlaydi;

Yuqoridagilardan tashqari mustaqil topshiriqqa nisbatan qiziqishni uyg‘otishi bilan xarakterlidir. Bu metod bosqichlarini 10-sinf ona tili darsligidagi o‘quv yilining birinchi choragida berilgan " Nutq uslublari " mavzusi misolida ko‘rib o‘tamiz.

O‘qituvchi yangi mavzuni "ma'ruza" metodi asosida misollar bilan tushuntirib o‘tgandan so‘ng, o‘quvchiga bajarish uchun mustaqil topshiriq beradi. Xuddi mana shu jarayonda "Faoliyat" metodidan foydalanadi va bu bosqichlari amalga oshiriladi.

Birinchidan, bir so‘zning bir necha ma'nodoshlari o‘quvchilar e'tiboriga havola etiladi.

Ikkinchidan, o‘quvchilardan bu so‘zlar qaysi uslubga xosligi aniqlash topshiriladi.

Uchinchidan, so‘zlardan faqat bittasini ixtiyoriy tanlab kichik matn tuzish topshirig‘i beriladi.

Tortinchidan, o‘quvchi tuzgan matni keyingi darsda qaysi uslubga xos bo‘lsa, shunga ko‘ra rag‘bat kartochkasi bilan taqdirlanadi. Bu metodning o‘ziga xosligi shundaki, rag‘bat kartochkalari ham o‘ziga xoslik kasb etganligidadir, ya'ni ular quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi:

1. "Ijodkor o‘quvchi" kartochkasi badiiy uslubga xos matn tuzgan o‘quvchilarga taqdim etish uchun;
2. "Jurnalist o‘quvchi" kartochkasi publitsistik uslubda matn tuzgan o‘quvchilarga taqdim etish uchun;
3. "Olim o‘quvchi" kartochkasi ilmiy uslubda matn tuzgan o‘quvchilarga taqdim etish uchun;
4. "Yurist o‘quvchi" kartochkasi rasmiy uslubga xos matn tuzgan o‘quvchilarga taqdim etish uchun;
5. "Ishbilarmon o‘quvchi" kartochkasi so‘zlashuv uslubiga xos matn tuzgan o‘quvchilarga taqdim etish uchun;

Yuqoridagi rag‘bat kartochkalari o‘quvchilarni ilm olishga bo‘lgan ishtiyoq va mashg‘ulotlarga faollikni oshiradi. Masofaviy ta'limda an'anaviy ta'limdagidek besh ballik sestima asosida o‘quvchilar bilimini baholash o‘quvchilar ruhiyatiga kuchli ta'sir eta olmaydi, shuning uchun ham yuqoridagi kabi qo‘shimcha ravishda rag‘bat kartochkalaridan foydalanish o‘quvchi psixologiyasiga ijobiy ta'sir ko‘rsata oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi davrdagi axborot kommunikatsiyalardan unumli foydalangan holda tashkil etilayotgan masofaviy ta'limda o‘quvchilar qiziqishi, imkoniyatlari, qobiliyatlarini yuzaga chiqara olishda mustaqil topshiriq uchun "Faoliyat" metodi samarali xarakter kasb eta oladi. Faoliyat arabcha so‘z bo‘lib, faol so‘zining ko‘plik shakli hisoblanadi, ya‘ni faollar ma'nosini bildiradi. O‘z nomi bilan o‘quvchilar faolligini oshirishda ahamiyatli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - Toshkent: 2003.
2. Pedagogik texnologiya. Zamonaviy ilmiy-nazariy asosi. Muallif guruhi. -Toshkent: 2008.
3. Yo‘ldoshev J.G‘, Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. Toshkent: 2008.
4. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat pedagogik texnologiya. -Toshkent: 2003.